

MUSIQA TA'LIMIDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O'QUVCHILARNING ESHITUV MALAKALARIGA TA'SIRI



Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar
va san'at fakulteti 2-bosqich talabasi
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

Ilmiy raxbar: Andijon davlat
pedagogika instituti dotsenti X.Botirova
rustamovamahsuma7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ta'lifi jarayonida multimedia vositalarining o'quvchilarning eshituv malakalarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Audio, video, interaktiv ilovalar va vizual dasturlar orqali o'quvchilar musiqani chuqur anglaydi, tahlil qiladi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Shuningdek, maqolada eshituv faolligi, tinglab farqlash, nota balandligini aniqlash, ritmni idrok etish, hamda mustaqil o'r ganishga yordam beruvchi raqamlı vositalarning amaliy foydalari bayon etilgan. Multimedia texnologiyalari yordamida musiqa darslari ko'proq interaktiv, qiziqarli va samarali bo'lishi ta'kidlangan.

Annotation: This article highlights the role of multimedia tools in enhancing students' auditory skills within music education. Through the use of audio recordings, videos, interactive applications, and visual software, students develop a deeper understanding and analytical approach to music. The paper discusses how digital tools promote active listening, differentiation of pitch and rhythm, and support self-directed learning. It emphasizes that the integration of multimedia technologies makes music lessons more interactive, engaging, and effective.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль мультимедийных средств в развитии слуховых навыков учащихся в процессе музыкального образования. С помощью аудиозаписей, видеоматериалов, интерактивных

приложений и визуальных программ учащиеся глубже осмысливают музыку, анализируют её и развивают творческий подход. В статье также освещаются практические преимущества цифровых технологий, такие как активное слушание, различение высоты звука и ритма, а также поддержка самостоятельного обучения. Подчеркивается, что использование мультимедиа делает уроки музыки более интерактивными, увлекательными и эффективными.

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, multimedia vositalari, raqamli texnologiyalar, eshituv malakasi, interaktiv ta’lim, musiqiy idrok, audio-vizual o‘rgatish, ijodiy salohiyat, kompozitsiya ko‘nikmalari, raqamli musiqiy ilovalar, mustaqil o‘rganish, tinglab tahlil qilish, onlayn musiqiy dasturlar.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi yutuqlar, ayniqsa, raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining rivojlanishi musiqa ta’limini yanada samarali va zamonaviy qilishga xizmat qilmoqda. Musiqa fanida multimedia vositalari deganda — audio yozuvlar, videolar, animatsiyalar, interaktiv dasturlar, raqamli musiqiy asboblar va turli vizual ko‘rinishdagi ilovalar tushuniladi. Ushbu vositalar orqali o‘quvchilar nafaqat musiqa tinglaydi, balki uni anglaydi, tahlil qiladi, ijodiy tarzda qayta ishlashga ham o‘rganadi.

Musiqiy eshituv malakasi — bu o‘quvchining eshitgan kuy, ohang yoki ritmni aniq eshitish, farqlash, esda saqlash va unga munosabat bildirish qobiliyatidir. Ushbu malaka musiqiy savodxonlik, ijodkorlik, emotsiyonal idrok kabi jihatlar bilan bevosita bog‘liq. Multimedia vositalari esa bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi va chuqurlashtiradi. Masalan, mashhur bastakorlarning asarlarini turli janrlarda audio shaklda tinglash orqali o‘quvchilar ohang, temp, dinamika, shakl va faktura elementlarini farqlashni o‘rganadilar. Turli millat va madaniyat musiqalarini tinglash orqali esa ularning eshituv doirasi kengayadi, bu esa musiqiy idrokni boyitadi. Musiqa tinglanayotganda ritm, balandlik yoki tovush to‘lqinlarining ko‘rinishini kuzatish (masalan, Chrome Music Lab kabi vizual dasturlar orqali) o‘quvchining tovushni nafaqat eshitish, balki uni ko‘z orqali ham idrok etishiga yordam beradi. Bu usul ayniqsa kinestetik va vizual o‘rganuvchilar uchun juda foydalidir. Videodarslar va

musiqiy kliplar orqali esa eshituvni estetik va ifodaviy jihatdan tarbiyalash mumkin. Professional ijrochilarni ko‘rish va tinglash orqali o‘quvchi nafaqat eshitadi, balki to‘g‘ri nafas olish, ovoz chiqarish va ifodali ijro sirlarini ham anglaydi. Raqamli ilovalar, xususan EarMaster, Tenuto kabi dasturlar orqali o‘quvchi ritmni taqillatish, nota balandligini topish, intervallarni farqlash kabi mashqlarni mustaqil bajaradi. Bu mashg‘ulotlar eshituv faolligini oshirib, eshituv malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘z ijrosini yozib, keyin uni tinglab tahlil qilish orqali o‘zining musiqiy kamchiliklarini mustaqil anglab tuzatadi. Bu esa nafaqat eshituv sezgirligini, balki reflektiv fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Zamonaviy tadqiqotchi William I. Bauer “Music Learning and Technology” nomli asarida aynan shuni ta’kidlaydi: raqamli vositalar eshituv ko‘nikmalarini mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega, chunki ular shaxsiylashtirilgan yondashuv, darhol fikr-mulohaza va takroriy mashqlarni ta’minlaydi. Bauerning fikricha, raqamli texnologiyalar musiqa yaratish va uni qayta ishlashda o‘quvchiga keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, Noteflight, Soundtrap yoki Flat.io kabi onlayn dasturlar orqali o‘quvchilar nota yozushi, ohang tuzilmasi, temp, dinamika kabi elementlar bilan erkin ishslashlari mumkin. Bu musiqiy tafakkurni shakllantirib, kompozitsion qobiliyatni bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Muhimi shundaki, bunday jarayonda texnik vositalar o‘quvchining ijodkorligiga to‘sinqilik qilmaydi, balki aksincha, uni ochib beradi. An’anaviy usullarda ayrim texnik yoki nota bilimi yetishmasligi ijodga halaqit bersa, raqamli vositalar bu to‘sislarni bartaraf etadi. O‘quvchi murakkab musiqiy fikrlarni texnologiya yordamida soddalashtirib, ifoda eta oladi. Bauer tomonidan taklif qilingan SAMR modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qanday chuqurlikda qo‘llanayotganini baholashga yordam beradi. Unga ko‘ra, texnologiyalar faqat vosita emas, balki ta’limni tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida xizmat qilishi kerak. Bauerning tadqiqotlariga ko‘ra, tinglab farqlash, ritmik sezuv, tovush balandligini ajratish, intervallarni aniqlash kabi eshituv ko‘nikmalarini interaktiv dasturlar orqali ancha mustahkam shakllanadi. Eng muhimi, bu dasturlar o‘quvchiga

o‘z xatolarini ko‘rish, ulardan saboq olish va o‘z ijrosini tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa faqat eshituvni emas, balki tahliliy va reflektiv tafakkurni ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta’limida multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning eshituv malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Ular musiqa tinglash, farqlash, tahlil qilish, esda saqlash va ijodiy ifoda qilish jarayonlarini jonlantiradi. Shuningdek, o‘quvchining o‘z-o‘zini baholash, reflektiv fikrlash, ijodiy mushohada yuritish va mustaqil o‘rganish salohiyatini ham kengaytiradi. Shuning uchun zamonaviy musiqa o‘qituvchilari multimedia vositalarini dars jarayoniga to‘g‘ri tanlab qo‘llash orqali nafaqat musiqiy bilimlarni, balki o‘quvchilarning eshituv madaniyatini va ijodkorligini ham samarali tarzda rivojlantirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qo‘chqarova G. M. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Saidova D. I. Pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. To‘xtayeva M. T. Musiqa darslarida interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2020.
4. Rustamova M. F. Raqamlı texnologiyalar asosida musiqa madaniyatini shakllantirish. // "Ta’limda innovatsiyalar" jurnali, 2023, №2.
5. Bauer W. I. *Music Learning and Technology*. – Oxford University Press, 2014.